



## O'ZBEK TILI O'QUV MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY BILIM BERISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Ergashev Maqsud**

*Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrası  
o'qituvchisi*

**Abstract:** *Insoniyat jamiyati, shuningdek, respublikamizda mavjud ijtimoiy-itisodiy, g'oyaviy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy muammolarning yechimini topish tabiiy, ijtimoiy, texnik fanlarni o'zaro aloqadorligi va o'zaro munosabatlariga bog'liq.*

**Key words:** *insoniyat, sivilizatsiya, millat, til, pedagog, manba.*

Insoniyat sivilizatsiyasi barcha sohalarda, jumladan ta'lim tizimida ham global o'zaro bog'liqlik darajasigacha erishdi. Hozirgi kunda bitta davlat yoki millatning muammosi butun jahon rivojiga katta ta'sir etishi mumkin. Yuzaga kelgan ekologik, iqtisodiy, siyosiy muammolar va inqirozlarning yechimi faqatgina insoniyatdan kelajakda aqliy va ma'naviy rivojlanishni talab etadi. Bunga esa faqatgina to'g'ri va sifatli ta'lim tizimini yo'lga qo'yish orqaligina erishish mumkin. Bugungi kunda dunyoda yuzaga kelayotgan barcha muammolar ildizi ta'lim-tarbiya tizimidagi sifat nuqsonlari natijasi desak xato bo'lmaydi. Buning yechimi ta'lim-tarbiyaga e'tiborni yanada oshirish, bu sohaga yanada ko'proq mablag' ajratish orqali ta'lim sifatini yuksaltirish bilan hal etilishi mumkin.

“BMT ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda ta'limga yo'naltirilayotgan xarajatlar davlat byudjetining 35 foizidan ortig'ini tashkil etmoqda”<sup>1</sup>. Lekin ta'kidlash joizki, ta'lim sohasidagi islohotlarning yanada ijobiyliги pedagoglarning globallashuv va axborotlashgan jamiyat ta'lim tizimi mazmun-mohiyatini nechog'lik tushunib etishlariga va qanchalik astoydil bajarishlariga ham bog'liqdir.

Insoniyat jamiyati, shuningdek, respublikamizda mavjud ijtimoiy-itisodiy, g'oyaviy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy muammolarning yechimini topish tabiiy, ijtimoiy, texnik fanlarni o'zaro aloqadorligi va o'zaro munosabatlariga bog'liq. Chunki, ularning barchasi mohiyati, mazmuni, tabiati, shakli va ko'lamiga ko'ra

<sup>1</sup> Мухторов А. ва б. Таълим соҳасини ривожлантириш бўйича хорижий тажрибалар // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, май, 2012.



tizimlilik xarakteriga ega bo'lib, ularga aynan mos yondashuv yordamida tadqiq etilib, yechimi topiladi. Bu o'z navbatida ta'lim-tarbiya ishida ham tizimli yondashuvdan foydalanishni ko'zda tutadi.

Ko'p sonli manbalar, xususan pedagogik amaliyot sohasining tahlili ta'lim-tarbiya jarayonining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muammolar mavjudligidan guvohlik beradi. Bular asosan, o'rganilayotgan ob'ektlarning ba'zi bir jihat va xususiyatlarini lavhalar (fragment) shaklida o'rganish natijasida yuzaga kelib, mantiqan bog'lanmagan va tizimlashmaganligidadir. Amaliyotdagi bunday holatlarni bartaraf etishda integrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Filologik ta'limda ilg'or xorijiy tajribalardan biri bu – ta'limni integrativ tashkil etilishi bilan bog'liq.

Ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaraganda integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o'zaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi. Taniqli rus psixologik olimi G.S.Kostyukning fikricha: "Tabaqalanish differentsiatsiya - ruhiy jarayonlar va holat (xususiyat)larni ko'payishiga olib kelsa, integratsiya - tartibga keltirish, subordinatsiya va uning natijalarini ma'lum ketma-ketlikda joylashtirishga olib keladi. Integratsiyalash yo'li bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi hosil bo'ladi. Bu yangi tuzilma ilgari alohida-alohida bo'lgan elementlardan sintezlash yo'li bilan hosil qilinadi"<sup>2</sup>. Genetik jihatdan integratsiya-uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va nihoyat o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o'rganilayotgan o'quv predmetlari doirasida ma'lum didaktik birliklar orasida o'rnatilib, ularni o'rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi, bundan farqli o'laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv predmeti yoki integratsiyalab

<sup>2</sup> Bozorova S. Ta'lim tizimida o'qitish texnologiyasi mohiyati // Uzlusiz ta'lim. – Toshkent, 2006.





o'rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi. Bu o'z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi, malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi. Chunki u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi. Bu operatsiyalar o'rganilayotgan ob'ektni barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab etish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo'lgan tabaqalashtirish (differensiatsiya)ga tayangan holda rivojlanib boradi yoki aksincha.

Integratsiya masalasini pedagog olimlar va amaliyotchilar quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etishni tavsiya etadilar:

- o'quv predmetlari va fanlar turkumi doirasidagi mazmunni integratsiyalab o'rganish;
- turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;
- ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllarini integratsiyalash va shu kabilar<sup>3</sup>.

Bu yo'nalishlarning har birining aniq o'z maqsadi bo'lib, uni amalga oshirish uchun mos shakl, metod, vosita va shart-sharoitlarni talab etadi. Amaliyotda ulardan uyg'un holda foydalanilgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini ham shu o'rinda eslatib o'tish lozim.

O'zbek tili mashg'lotlarini tahkil etishda integratsiyani qo'llash bilimlarning umumlashuvini ta'minlaydi.

<sup>3</sup> Bozorova S. Ta'lim tizimida o'qitish texnologiyasi mohiyati // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2006.



Hozirgi zamon talabi esa yangi o'quv muhiti, ya'ni yangi informatsion texnologiyalar yordamida ixtiyoriy joyda turib bilim olish, elektron darslikning imkoniyatlarini multiplikatsiya va videotexnikaning zamonaviy vositalarini qo'llagan holda kengaytirish mumkin. Bular o'quv kursi bo'yicha videoma'ruzalar, ishlab chiqarish jarayonlarining namoyishi, mashhur olimlarning chiqishlari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Zamonaviy kompyuterga mo'ljallangan didaktik dasturlar (elektron darslik, kompyuter topshiriqnomalari, multimediali elektron darsliklar va boshqalar) o'qitishning multimediali vositalari sirasiga kiradi. Multimedia didaktik material uzatishni yuqori darajada qulay va ko'rgazmali bo'lishini ta'minlaydi, bu, o'z navbatida, talabalarda o'rganishga qiziqishni orttiradi.

Ma'lum bir dars turi bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda ikkinchi, hatto uchinchi bir dars turining elementlari bo'lishi mumkin. Masalan, o'quv yurtlarimizda eng ko'p qo'llaniladigan dars turlaridan biri - yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars turi quyidagicha tuziladi:

- a) yangi mavzularni bayon qilish;
- b) yangi mavzularni mustahkamlash;
- v) yangi mavzular ustida mashq qilish;
- g) yangi mavzularga bog'liq holda uy vazifalari topshirish<sup>4</sup>.

Dars tuzilishini biridan ikkinchisiga o'tishi va shu orqali-darsning shakli hamda usullarining o'zgarishi dars bosqichi deb yuritiladi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Abdulla

<sup>4</sup> Ishmuhamedov R. Ta'limda innovasiya. – T.:Fan, 2010.





Avloniy asarlarini zamonaviy metodlar orqali o'quvchini mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Ma'lumki, interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Adibning hayoti va ijodi, asarlarini, she'rlarini o'qitishda "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom yettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishishimiz mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida esa "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil yetuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume" "Kungaboqar", "Charxpalak" metodlarini, uyga vazifa berishda "FSMU", "Klaster", "BBB" metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Adibning asarlarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari "Ha... yo'q", "Ta'rif egasini top", "Men kimman?" "Domino" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi<sup>5</sup>. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim. Mazkur usuldan foydalanish o'tilayotgan mavzularni uyg'unlashtirishda yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухторов А. ва б. Таълим соҳасини ривожлантириш бўйича хорижий тажрибалар // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 4, май, 2012.

<sup>5</sup> Мухторов А. ва б. Таълим соҳасини ривожлантириш бўйича хорижий тажрибалар // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 4, май, 2012.



2. Bozorova S. Ta'lim tizimida o'qitish texnologiyasi mohiyati // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2006.
3. Ishmuhamedov R. Ta'limda innovasiya. – T.:Fan, 2010.
4. Мухторов А. ва б. Таълим соҳасини ривожлантириш бўйича хорижий тажрибалар // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, май, 2012.

